



TABIY FAN (SCIENCE)NI OMMALASHTIRISH

Djuraeva Gulmira Baxromovna

*Toshkent viloyati Bo'stonliq tuman xtbga
qarashli 36-sonli maktabda geografiya o'qituvchisi.*

Annotatsiya: Ushbu maqolada tabiiy fan hisoblanadigan Science fanini ommalashtirish haqida ma'lumotlar berilgan shuningdek maqola mualliflarining ushbu fanni joriy etilishi haqidagi fikr va mulohazalari ham berilgan.


Kalit so'zlar: science, tabiiy fanlar, pedagog, chet el tajribasi, nazariya, didaktik materiallar

Tabiiy fan (SCIENCE) amalga kiritilishidan oldin xorij tajribasi va O'zbekistonda faoliyat olib borayotgan xususiy maktablar tajribasi o'rganildi. Yangi fan o'quvchilarni kichik yoshidan tabiiy fanlarni o'qishga rag'batlantirish, ularda olam haqida yaxlit tasavvur paydo qilishga yordam beradi. Buning bilan bola tabiiy fanlar, jumladan fizika, kimyo va Geografiyani qiyin emas, qiziq fanlar ekanini anglaydi va uni o'rganishga o'zida rag'bat sezadi. Tabiiy fan (SCIENCE) qaysidir fandan voz kechish yoki qaysidir fanning o'rniga joriy etilayotgani yo'q. Ko'pchilik fikricha bu fanni amalga tadqiq qilinishi boshqa tabiiy fanlarni vaqt soatini qisqarishi bilan izohlashadi.

Aksincha, u ta'lim sifatini oshirish uchun mavjud fanlarni integrativ tarzda o'qitilishini ta'minlaydi. Tabiatda yuz berayotgan hodisalarni, masalan, yomg'ir hodisasini o'rganish jarayonida bola uning tarkibi (biologiyaga oid tushunchalar), fizik xususiyatlari, qaysi fasllarda va qayerlarda ko'proq yog'ishi (geografik xususiyati), yomg'ir ta'sirida yerda qanday o'zgarishlar bo'lishi, o'simliklar uchun foydasi haqida ma'lumotga ega bo'ladi. Mazkur fan 1–2-sinflarda «Atrofimizdagi olam», 3–4-sinflarda tabiatshunoslik, 5–6-sinflarda esa 3 ta alohida fan – geografiya, biologiya va fizika fanlari mazmunini va kimyo fanining boshlang'ich tushunchalarini uyg'unlikda o'qitadi. 7-sinfdan boshlab esa biologiya, geografiya va iqtisodiyot, fizika, kimyo fanlari alohida o'qitiladi.

Mavzuning ahamiyati shundan iboratki har qanday yangilik amalga tadqiq qilinganda albatta ko'pchilikning tanqidiga uchraydi. Science fani ham eng birinchi shunday bo'ldi. Ko'pchilik ishsiz qolamiz deb qo'rqdi. Shunday bo'lishiga qaramay bu fan endilikda ko'pchilik uchun juda muhim va qiziqzrli fanga aylandi desak adashmaymiz. Sababi bu fanda amaliy soatlarning ko'pligi tufayli o'quvchilar nazariy fanlarga qaraganda ko'proq narsalarni bilib olishmoqda. Bu esa o'z navbatida ushbu fanning kelajagi katta ekanligidan dalolat beradi. Tabiiy fan (SCIENCE) bosqichma-bosqich tarzda joriy qilinadi.

Birinchi bosqich 2021/22 o'quv yilida 1–2-sinflarda, keyin boshqa sinflarda joriy qilinadi. Bu muddatda yangi o'quv yili boshlangunga qadar 1–2-sinf o'qituvchilariga mazkur fanni o'qitish bo'yicha maqsadli malaka oshirish kurslari tashkil etiladi va





kelgusida fanni o'qitadigan mutaxassis o'qituvchilar ham tayyorlanadi. Zarur bo'lsa, qayta tayyorlov kurslari tashkil etiladi. Ayni paytda 1–2-sinfda «Atrofimizdagi olam» – 1 soat, 3–4-sinfda tabiatshunoslik – 1 soat, 5-sinfda biologiya – 1 soat, geografiya – 1 soat, 6-sinfda fizika – 2 soat, biologiya – 2 soat, geografiya va iqtisod – 2 soatdan o'qitilib, 1–5-sinflarda jami 12 soatni tashkil qiladi.

Ushbu fanni o'qitishga kimlar haqli qaysi yo'nalish pedagoglari degan savolga eng haqli bu Geograflar hisoblanadi. Sababi hozirgi kunda chiqarilgan science darsliklarining deyarli 70-80% qismini geografiya tashkil etadi. Buning uchun hozirda ta'lim olayotgan geografiya yo'nalishi talabalariga diplomiga science fanlari mutaxasisi deb ham yozib qo'ygan maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. R.A. Mavlonova, N. H. Raxmonqulova, K.O.Matanazarova, M. K. Shirinov S. Hafizov "Umumiy pedagogika" « Fan va texnologiya» nashriyoti T.: 2018
- 2.N.N.Azizxo'jayeva "Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat" «O'zbekiston yozuvchilar uyishmasi Adabiyot jamg'armasi» nashriyoti T.: 2006
- 3.S.T.Turg'unov, L.A.Maqsudova, H.M.Tojiboyeva, G.M.Nazirova, M.A.Umaraliyeva "Padagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish, sifat va samaradorligini oshirish texnologiyalari" «O'zbekiston Respublikasi O'zPFITI » nashriyoti, T.:2014
- 4.O'zbekiston Respublikasi prezidenti farmoni. www.lex.uz internet sayti.
5. www.ziyonet.uz internet sayti.

